

**“O‘SMIRLIK DAVRIGA XOS AGRESSIVLIKNI IJTIMOIY – PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI”
(MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI MISOLIDA)**

Xamidova Fariza Shuxrat qizi

O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Tajavvuzkorlikni keltirib chiqaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik, aniq bir to‘xtamga kela olmaslik kabilar, tarbiyalanuvchi o‘smirlarda keyinchalik doimiy salbiy hissiyotlarni shakllanishiga olib keladi.*

KALIT SO‘ZLAR: *Agressiya, yetimlik, tajovuzkorlik.*

ANNOTATION: *Another reason that causes aggression: inability to come to an agreement, such as inability to come to a definite end, later leads to the formation of permanent negative emotions in adolescents.*

KEY WORDS: *Aggression, orphanhood, aggression.*

KIRISH

Angliyalik psixolog olim R.Bernisonalik mehrga tashnalikni tahlil kila turib, shunday deb yozadi: salbiy dalillarsiz “men konsepsiyasi”ning rivoqlanishi va hissiz tajavvuzkorlik bolaning ota-onasiga va onalik rolini bajaruvchi kishiga nisbatan qo‘polligi natijasidir. Bolada hech kimga qo‘silmaslik, odamovilik, tundlik hissi paydo bo‘la boshlaydi. Bular esa salbiy “Men konsepsiya”sini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tajavvuzkorlikni keltirib chikaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik, aniq bir to‘xtamga kela olmaslik kabilar, tarbiyalanuvchi o‘spirinlarda keyinchalik doimiy

salbiy hissiyotlarni shakllanishiga olib keladi. Psixolog olimlardan V.S.Rotenberg va S.M.Bondarenko o‘z konsepsialarini ishlab chiqdilar. “Qidiruv faolligi” deb atalgan ushbu konsepsiya mualliflarining ta’kidlashicha agar qidiruv faolligini yo‘nalishi o‘zgartirilsa tajavuzkorlikni yo‘qotish mumkin bo‘ladi. O‘z o‘rnida bu olimlar nemis psixoterapevti G.Ammon konsepsiyasiga yaqinlashadi. G.Ammon har bir odam tajavuzkorlik bilan tug‘ilishini, normal rivojlanish natijasida asta-sekinlik bilan ijodiy garmonik rivojlanishga o‘tishini ta’kidlaydi.

Bolalar uyi va maktab internatdagи tarbiyalanuvchilarda shaxs xislatlarining shakllanishi va bir qancha ruhiy holatlariga taaluqli muammolarni o‘rganish bilan ham olimlar keng shug‘ullanishgan, xususan Avstriyalik olim A.Adlerkarov bolalar orasidagi jinoyatchilik, qonunbuzarlikni o‘rganib chiqib, ba’zi bir olimlar fikrini inkor kiladi. Tarbiya jarayonida yosh xususiyatlari, shaxs xislatlari yo‘nalishi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, qayta tarbiyalashga erishish mumkinligini aytib o‘tadi.

Amerikalik psixolog R.A.Ships bolalar uyidagi intizomni saqlash uchun qo‘llaniladigan jazolashni qat’iyan qoralaydi. Bolalarni guruh oldida jazolash yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Aybdorlar jazoni unutmaydilar, tarbiyachiga nisbatan hurmatsizlik hissi paydo bo‘ladi. Izquvarlik qilish xam yaramaydi. Buning o‘rniga sodir etilgan jinoyatni guruh oldida muhokama etish yaxshi natija beradi. Birinchi navbatda intizom buzilishining sababini o‘rganish kerakligini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, ishonch va aralashish intizom buzilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, jazolash voqeа sodir etilgandan so‘ng qo‘llaniladi. Jazolash vaqtida bolalar, shu tarbiyachi intizom tiklashini va shu yerda tartib o‘rnata olishini bilishi kerak.

Jon Boulbi fikricha, o‘smirlilik va ilk o‘spirinlik yosh davrlarida mehribonlik uylari sharoitida sevgi-muxabbat to‘g‘risidagi tasavvurlarning o‘ta torligi, buzib idrok qilinishi qaltis jinsiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Ota-onaning mehr-muhabbatidan, maslahatidan maxrum bo‘lishlik nazokatli harakatlarni qo‘llashga imkon bermaydi. Bu ruhiy xolat o‘z-o‘zidan bolada jismoniy, aqliy hamda emotsional beqarorlikni keltirib chiqaradi. Deprivatsiya ushbu holatning asosiy sababchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Chexiyalik tadqiqotchilar I.Langieer va Z.Mateychev fikricha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida psixik taraqqiyotning quyidagi sohalari bilan bog'lik muammolar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanishidagi muammolar.

- ko'p hollarda aqliy tarqqiyotning susayishi kuzatiladi. Bundan tashqari, ular xatto oldilarida turgan muammoga doir mustaqil qaror qabul qila olmaydilar. Ularga namuna asosida ish olib borish qulayroq;

- yangilikka bo'lgan qiziqish, yorqin hayotiy misollar va xatto g'ayritabiyy holatlar kabi primitiv shakllarda ham extiyojlarning anglanishi xaddan tashqari kuchsiz aks etadi. Bu yerda voyaga yetmaganlarning axlok tuzatish koloniyalari tarbiyalanuvchilarini xam misol keltirish mumkin. Lekin, ularda motivatsiya sust aks etishiga qaramay, hayotga bo'lgan bevosita qiziqish juda yorkin namoyon bo'ladi;

- tarbiyalanuvchilar normal darajadagi intellekt imkoniyatlaridan na o'qishda va na hayotiy faoliyatlarida to'liq foydalanadilar. Bu bolalarining ma'lum darajada motivatsiya hamda to'laqonli jamiyatdan uzilib qolganligi bilan izohlanadi. Buni "intellektual sustlik" deb atash mumkin.

2. Ehtiyoj - motivatsiya jabhasining rivojlanishi bilan bog'lik muammolar:

- mehribonlik uylari va internat bolalariga qaraganda "uy" bolalarining bugungi kun yoki yaqin kelajak bilan bog'liq bo'lgan motivlari ustunlik qiladi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ertangi kun yoki vaqt o'tishini deyarli idrok qilmaydilar va bugungi kun bilan yashashni ma'qul ko'radilar.

NATIJALAR

Dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oila muhitida o'smagan bola alohida yo'ldan yuradi va unda yaxshi yoki yomon deb baholab bo'lmaydigan xarakter, xulq-atvor va shaxslilikning shunchaki boshqacha, o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi.

Bunday sharoitda yetim va ota-onasiz qolgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish muammozi sotsiolog, psixolog va pedagoglar oldidagi har bir bola uchun individual metodik ish olib borish talabini kuchaytiradi. Xususan, yurtimizda

Mehribonlik uylari, maxsus maktablar, maktab-internatlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalar uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratish, tarbiyachi-pedagoglarning mehnatini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ehtiyojli bolalarga ko'rsatiladigan pedagogik-psixologik xizmatlarni yanada takomillashtirish, ularning jamiyatga integratsiyalashuviga ko'maklashish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA

Emotsional jihatdan bola o'zini qulay xis etishi uchun jismoniy salomatligi, atrofdagi odamlar bilan muloqoti xususiyati, shaxsiy muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi ijtimoiy shart-sharoit muhim hisoblanadi. Albatta, yaxshi go'daklar uyi va mehribonlik uylarining tajribasidan ma'lumki, imkon qadar oilaviy muhitga yakinlashtirilgan shart-sharoitlarda unib-o'sishlari katta hayotga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlovchi muhim omildir.

XULOSA

Shunday qilib, yuqorida o'rganib chiqilgan ilmiy adabiyotlar sharhi davomida shu narsaga iqror bo'ldikki, Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarining shaxs xususiyatlari, xarakter hislatlari, ahloqiy bilimlari, aggressivlik motivlari, aqliy imkoniyatlari, o'z-o'zini anglash va bir qancha ijtimoiy-psixologik muammolarni ochib beradigan, aniq manbalar hozircha yetarli emas. Mavjud ba'zi bir ilmiy ishlar esa, bir tomonlama tadqiq etilganligi, hududiy va mintaqaviy jihatdan axloqiy-ijtimoiy munosabatlari bizning sharoitimiz, milliy qadriyatlarimizga ma'lum bir darajada mos kelmasligi bilan xarakterlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 23-noyabr 2007-yil (o‘zgartirish va qo‘sishimchalar bilan)
2. O‘zbekiston Respublikasi “Vasiylik va homiylik” to‘g‘risidagi qonuni 02.01.2014 yil
3. O‘zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi” to‘g‘risidagi qonuni 29.09.2010 yil
4. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari” to‘g‘risidagi qonuni 07.01.2008 yil
5. “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 09.08.2021 yildagi PQ-5216-son
6. “Yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 09.08.2021 yildagi PQ -5215-son